
Prof. Samariddin ELMIRZAYEV, Gulchehra UMIROVA

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYA BOZORIDA ISLOM QIMMATLI QOG'OZLARI VA AKSIYALAR O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo mamlakatlarining moliya bozorida sodir bo'layotgan yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi islom qimmatli qog'ozlari va an'anaviy aksiyalar o'rni, ularning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati va samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida global yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida yuzaga kelayotgan va oldida tugan muhim vazifalar hamda muammolarga yechim sifatida moliya bozorining yana bir yangi instrumentlari sifatida islom qimmatli qog'ozlaridan foydalanish taklifi xorijiy amaliyot tajribasidan kelib chiqqan holda taklif hamda tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: moliya bozori, yashil sukuk, yashil obligatsiyalar, islom qimmatli qog'ozlari, aksiyalar, yashil moliyalashtirish.

THE ROLE OF ISLAMIC SECURITIES AND TRADITIONAL STOCKS IN THE FINANCIAL MARKET IN THE DIGITAL ECONOMY

Abstract. This article examines the role of Islamic securities and traditional shares in the transition to a green economy, their importance in the country's economy, and performance indicators. In the context of the digital economy, the proposal to use Islamic securities as another new instrument of the financial market as a solution to the important tasks and problems arising in the process of transition to the global green economy is presented, based on the experience of foreign practice and recommendations.

Key words: financial market, green sukuk, green bonds, Islamic securities, stocks, green financing.

Kirish

Jahon mamlakatlari doirasida har bir davlat o'z iqtisodiyotini doimiy samaradorlikka erishtirish uchun qilinadigan ishlar ro'yxatining ilk o'rinlarida barcha sohalarini raqamli iqtisodiyot sharoitlariga moslagan holda harakatlantirish mas'uliyati turibdi. Ushbu raqamlashtirish jarayoni nafaqat aholisi musulmon bo'lmagan davlatlar balki musulmon davlatlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun ham foydalanishda cheklovlar mavjud emas.

Moliya bozorida o'z o'rniga ega holda sezilarli samaradorlik ko'rsatkichlarini namoyon qilib kelayotgan islom qimmatli qog'ozlari ham so'nggi o'n yil mobaynida ko'plab dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining bir qismiga aylanishga ulgurdi. Xususan, islom qimmatli qog'ozlaridan sukuk emissiya qilinish qiymati va

hajmiga ko‘ra an’anaviy aksiya va obligatsiya qiymati bilan deyarli bir xil va hatto ortiq ko‘rsatkichlarga erishib kelmoqda.

Bugungi kunda xalqaro amaliyotda iqtisodiyotni moliyalashtirishning asosiy turlari sifatida bank kreditlari hamda qimmatli qog‘ozlar orqali moliyalashtirishdan keng foydalanilmoqda. Bu orqali nafaqat kompaniyalar o‘zlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini kengaytirishga imkoniyat yaratadi, balki mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta‘minlash, moliya bozori samaradorligini oshirishga hissa qo‘shadi. Ushbu jarayonda moliya bozorida islom qimmatli qog‘ozlarini tatbiq qilish, islom qimmatli qog‘ozlari orqali investorlarni keng ko‘lamda jalb qilish, qimmatli qog‘ozlar emissiyasini samarali yo‘lga qo‘yish orqali moliya bozorini rivojlantirish qo‘shimcha imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Shu boisdan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganlaridek, “... mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi [1]”.

Adabiyotlar sharhi

Jahon iqtisodiyotini moliyalashtirish amaliyotiga islom qimmatli qog‘ozlarini joriy qilish orqali samaradorlikka erishish masalasi ko‘rib bir necha xorijiy va mahalliy olimlar ishlarida tadqiq qilinganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Le, Nguyen (2022) o‘z tadqiqot ishlarida 2013-yilning 4-choragi va 2020-yilning 4-chorakidagi 24 ta davlat namunasi misolida COVID-19 inqirozi ta’sirida diversifikatsiya va islom bank tizimlari faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, islom bank tizimlari faoliyati shariatga muvofiq moliyalashtirishning tarmoq diversifikatsiyasi va daromadlarni diversifikatsiyalash bilan bilan ijobiy tomondan bog‘liqdir. Ushbu tadqiqot COVID-19ning salbiy ta’sirini tasdiqlagan bo‘lsa-da, daromadlarni diversifikatsiyalash ushbu inqirozning islom bank tizimlari faoliyatiga salbiy ta’sirini yumshatdi. Bunda sukuk investitsiyalari ushbu diversifikatsiya strategiyasini amalga oshirish uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi [2].

Xorijiy olimlarning tadqiqot ishlaridan so‘ng qilgan xulosalariga ko‘ra: islom qimmatli qog‘ozlari so‘nggi paytlarda, xususan, 2008 – 2009 yillardagi global moliyaviy inqiroz va 2011 – 2012 yillardagi Yevropa qarz inqirozidan keyin tezkor mashhurlikka erishdi. Islom qimmatli qog‘ozlari moliyaviy stress davrida an’anaviy instrumentlarga qaraganda yaxshiroq natija bilan ishlashini ta’kidlaydilar [3].

Pegah Zolfaghari islom qimmatli qog‘ozlari (sukuk) bu aksiyalar va obligatsiyalarning xususiyatlariga ega bo‘lgan gibril qimmatli qog‘ozlar ekanligini ta’kidlagan. Shuningdek, qimmatli qog‘ozlar singari ular ham sheriklik turini bildiradi va sukuk egalari sukuk chiqarilgan asosiy aktiv yoki loyihaning egalari sifatida ko‘rib chiqiladi [4].

Ko'plab xorijiy tadqiqodchilarning ilmiy izlanishlari natijasida yashil obligatsiyalar bozorlari investorlar uchun xavfsiz bo'lishi yoki diversifikatsiya shaklida an'anaviy obligatsiya bozorlari muqobil variant bo'lish imkoniyati mavjud ekanligi xulosa qilingan [5].

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida bir-biriga o'xshamaydigan bozor sharoitlari, inflyatsion rejimlari va investorlar turlari uchun islom va an'anaviy fond indekslarini inflyatsiyaga qarshi himoya qilish va diversifikatsiya qilish samaradorligi to'g'risida yangi va to'g'ri tushunchalarga ega bo'lish ham an'anaviy, ham islom shariatlariga mos ishlaydigan qaror qabul qiluvchilar, investorlar va siyosatchilar uchun tegishli ta'sir ko'rsatishi haqida alohida xulosalar keltirilgan [6].


Jahon mamlakatlaridagi iqlim o'zgarishlari va ekologik xavflar bugungi iqtisodiyotning dolzarb mavzulari hisoblanib kelmoqda. Ushbu muammolar bo'yicha jamoatchilikning ogohlantirilishi ta'siri hanuzgacha davom etayotgan bo'lsa-da, so'nggi tadqiqodlar iqlim o'zgarishi va ifloslanish to'g'risida jamoatchilikning xabardorligini baholashga kirishdi. E.O.Guesmi, Peillex va Ziegler kabi xorijiy olimlar xulosasiga ko'ra, atrof-muhit muammolarini bo'yicha jamoatchilikni jalb qilish barqarorlik fond indekslariga sezilarni ijobiy ta'sir ko'rsatgani va an'anaviy instrumentlar uchun salbiy ta'sir ko'rsatgani haqida takidlab o'tishgan [7].

Tahlil va natijalar muhokamasi

Raqamli iqtisodiyot sharoitiga o'tish jarayonida moliya bozorini samaradorlik ko'rsatkichini yuqori bo'lishida foydalanilish jarayoni o'z-o'zidan barcha turdagi moliyaviy instrumentlardan yuqori ko'lamda foydalanish imkoniyatini ochib beradi. Xususan, islom moliyasining paydo bo'lish vaqtlar XX asrning oxirlaridan boshlangan bo'lishgiga qaramasdan, hozirgi kunga kelib ko'plab aholisi musulmon bo'lgan hamda musulmon bo'lmagan davlatlar moliya bozorida yangi ishtirokchi sifatida sezilarli o'rinlarni egallab kelmoqda. XXI asrning boshlariga islom qimmatli qog'ozlaridan foydalanish darajasida asosan BAA, Malayziya, Quvayt, Sudan, Pokiston kabi davlatlar yetakchilik qilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib ko'plab G'arb mamlakatlari ham islom qimmatli qog'ozlaridan an'anaviy qimmatli qog'ozlar salmog'idan ko'ra ko'proq hajmda foydalanayotganlarini ko'rish mumkin.

Islom moliya sektorining o'sishi 2020 - yil davomida 95 ta islom fondlarining ishga tushirilishi bilan ham qo'llab-quvvatlandi, bu esa islom moliyasi boshqaruv ostidagi aktivlarga 1,5 milliard AQSh dollar qo'shdi. Ularning aksariyati Malayziya, Indoneziya, Pokiston va Saudiya Arabistonida joylashgan. Aktivlar turlari bo'yicha islom fondlari o'rtacha jami ko'rsatkichi 6,8% ni tashkil etgan holda nisbatan yaxshi natijalarga erishdi. Islomiy kapital fondlarining qariyb yarmi

ikki raqamli o'sishga erishdi, 19 foizi esa salbiy o'sishni qayd etdi. Tovar va sukuk fondlari ham ijobiy natija ko'rsatdi va mos ravishda 5,7% va 3,5% o'rtacha jami ko'rsatkichlarni qayd etdi. 2021 - yilda ko'plab mamlakatlar o'z iqtisodlarini sekin-asta qayta ochishi bilan islomiy aktivlarni boshqarish sektori tiklanishi kutilmoqda [8].



1-rasm. Xalqaro sukuk emissiya hajmi (mlrd. AQSh dollar) [9]

Xalqaro sukuk emissiya hajmini bo'yicha ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, 2022-yilga kelib emissiya hajmi 2010-yilgi emissiya hajmidan qariyb yeti barobardan ortiq hajmda emissiya qilingan. Ammo bu ko'rsatkich eng yuqori emissiya hajmining ko'rsatkichi emas, ya'ni, 2021 yilda dunyo mamlakatlaridagi sukuk emissiyasining umumiy hajmi hozirgi vaqtga qadar record darajasidagi eng yuqori ko'rsatkichni namoyon qilgan, xususan, 49 milliard AQSh dollar qiymatida emissiya qilingan. Sukuk emissiyaviy hajmi global pandemiya holatlarida ham eng yuqori ko'rsatkichlarda namoyon bo'lganini ko'rish mumkin. 2010-2022 yillar oralig'idagi emissiya hajmini tahlil qilar ekanmiz, ko'rishimiz mumkinki dastlabki besh yil ichida emissiya hajmi besh barobarga ortgan bo'lsa, keying besh yil davomida bu ko'rsatkich o'n barobardan ortiq hajmga oshganini ko'rish mumkin.


Jahon mamlakatlaridan sukuk emissiyasining yildan yilga ortishining sababi ayni shu turga mansub qimmatli qog'ozlarning samaradorlik ko'rsatkichlari qoniqarli baholanishiga sabab bo'lishi, qolaversa an'anaviy aksiya va obligatsiyalardan bir qancha farqli va ustunliklarga ega ekanligi hisoblanmoqda. Sukukning oddiy aksiya va obligatsiya bilan o'xshash bir qancha jihatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar (2-rasm).

Qimmatli qog'oz turi	Oddiy aksiya	Sukuk	Obligatsiya
Chiqarish shakli	Emissiyaviy qimmatli qog'oz	Emissiyaviy qimmatli qog'oz	Emissiyaviy qimmatli qog'oz
Korporativ boshqaruvdagi ishtiroki	Boshqaruv va daromadda ishtirok etadi	Turiga ko'ra: -to'liq ishtirok; -sof foydaga sherik; -qarz majburiyati	Faqat qarz majburiyatini yuklaydi
Muomala muddati	Mavjud emas	Mavjud	Mavjud
Investor foydasi	Dividend	Mavjud	Kafolatlangan foiz stavkasi
Nominal qiymatining qaytishi	Kaafolatlanmagan	Sof foydadan ulush yoki kechiktirilgan ustama to'lov	Kafolatlangan
Nominal va so'ndirilish qiymati o'rtasidagi farq ehtimoli	Mavjud	Kafolatlanmagan	Mavjud emas
Aktiv bilan qoplanganligi	Qoplangan	Qoplangan	Turiga ko'ra
Konseptual asoslari	Inson tafakkuri	Shariat	Inson tafakkuri
Tartibga solinishi	Normativ huquqiy hujjatlari	Shariat, normativ huquqiy hujjatlar	Normativ huquqiy hujjatlar
Moliyalashtirish sohasi	Ixtiyoriy	Shariatga muvofiq	Ixtiyoriy
Ikkilamchi bozordagi savdosi	Mumkin	Turiga ko'ra: -mumkin; -mumkin emas	Mumkin

2-rasm. Sukukning oddiy aksiya va obligatsiya bilan o'xshash va farqli jihatlari [10]

Bunday ko'p tomonlama o'xshashlik asosida sukukni gibril qimmatli qog'oz, deb atashimiz ham mumkin. Bu turdagi islom qimmatli qog'ozlarining boshqa an'anaviy qimmatli qog'ozlardan farqli xususiyatlaridan yana biri ularni joylashtirishda maxsus loyiha kompaniyalari (SVP – special vehicle purpose) va shariat kengashi institutlarining ishtirok etishidir. Ushbu ikki institute sukuk muomalasida muhim ahamiyat kasb etib, barcha bosqichlarda murakkabliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi [10].

Sukuk foizsiz obligatsiya hisoblanib, foizlarni to'lashni taqiqllovchi shariat (Islom qonuni) tamoyillarini buzmasdan investorlarga daromad keltiradi. Bu asosiy aktivlarning ma'lum bir jamg'armasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan shariatga mos xavfsizlikdan biridir. Sukukning ko'pgina amaliy qo'llanilishida investorlar ko'ra oldigan pul oqimlari obligatsiyalarga investitsiya qilishda kutiladigan foydaga juda o'xshash bo'lib, sukuk shariatga muvofiq loyihalarni moliyalashda obligatsiyalar uchun mos muqobil instrument hisoblanadi. Xususan, 2019-yilda jahon yalpi sukuk emissiyasi 130,2 milliard dollarini tashkil etdi, bu 2018-yilgi yalpi emissiyaning 91,9 milliard dollardan 41,6 foizga o'sganidan dalolat beradi. O'sish ko'rsatkichlari bo'yicha birinchi beshta davlat Turkiya (+320,4%), Qatar (+62,2%), Malayziya (+57,7%), Bahrayn (+45,1%) va Indoneziya (+26,2%) bo'ldi.




3-rasm. 2022 yilda butun dunyo bo'ylab suveren sukuk emissiyasining umumiy taqsimoti (% ko'rsatkichda, mamlakatlar kesimida) [11]

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2022 yilga kelib mamlakatlar kesimida sukuk emissiyasida asosiy yirik emitent sifatida asosan musulmon davlatlari yetakchilik qilgan. Xususan, jami emissiya qilingan sukuk hajmining 31,2 foiz emitenti sifatida Saudia Arabistoni dastlabki o'rinni egallagan. Keyingi o'rinlarda islom qimmatli qog'ozlari emissiyasining dastlabki yillaridan hozirgi davrga qadar

yetakchilik qilib kelayotgan Malayziya (21,6%), Indoneziya (19,1%) hamda Quvayt (11,9%) yirik emitent guruhiga kiritildi. Pokiston, Turkiya, Bahrayn va Bruney o'zlarining emitentlik ko'rsatkichlari bilan jami emissiya hajmining 2,5-5,6 foizlik qismiga egalik qilganlar. Bunda, Bruney va Bahrayn jami emissiyaning 2,5 foiziga egalik qilgan. Top o'ntalik emitent sifatida so'nggi o'rinlarda BAA (0,8 %), Bangladesh (0,7%) va Ummon (0,4%) davlatlari boshqa davlatlarga nisbatan yirik hajmdagi emitent sifatida o'rin olgan. Bu jarayonda keltirilgan davlatlar asosan islom qimmatli qog'ozlarining sukuk turi bo'yicha emissiyasi hajmi keltirilgan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida islom moliyasiga texnologik imkoniyatlarni aralashuvini ta'minlash orqali nafaqat oddiy aksiya va obligatsiyani o'rnini bosish imkoniyati yaratiladi, balki samaradorlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirish imkoniyatini taqdim etadi.

Islom moliyasi mahsulotlarini IT texnologiyalardan foydalangan holda iste'molchi/mijozlarga yetkazib berish; yoki soda qilib aytganda, "Bu islom moliyasi xizmatlarini raqamli shaklda yetkazib berishga mo'ljallangan dastur yoki platformadir". Islamicfinancenews (IFN)ning ma'lumot berishicha, 2021 yil avgust oyi holatiga ko'ra, dunyo bo'ylab 251 ta Islom moliyasiga muvofiq fintechlar faoliyat olib bormoqda. Islom moliyasida fintechni qabul qilishning o'ziga xos ta'siri mavjud (4-rasm).



4-rasm. Islom moliyasida Fintech qo'llanilishining ta'siri [12]

Barcha tarmoqlar singari islom moliyasi va qimmatli qog'ozlarining emissiyasi jarayoni bevosita fintech aralashuvi natijasida ta'siri o'rganilganda ularning ko'plab ustun taraflari mavjud ekanligi aniqlangan. Xususan, Islom moliyasida ham fintech qabul qilish ta'siri eng avvalida tranzaksiya jarayonlarini takomillashtirishga ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Pul o'tkazmalari va muomalasi jarayonida yuzaga kelish mumkin bo'lgan harajat va xatolarni kamayishiga xizmat

qiladi. Asosiy hujjati bo'lgan shariat me'yorlariga muvofiq fintech aralashuvi natijasida zakot va vaqf mablag'larining aylanishini monitoring qilish osonlashishiga erishiladi. Emissiya natijasida yuzaga keladigan investitsion risklarni boshqarishga erishish osonlashadi. IT texnologiyalaridan foydalanish orqali ish faoliyatini yaxshiroq baholanishiga xizmat qiladi. Ma'lumotlar to'g'riligi, tezkorligi, aniqligi fintech orqali ta'minlab berilishi orqali ko'proq shaffoflik va yaxlitlikka erishish mumkin bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya bozoridagi instrumentlarni ko'paytirish va bu orqali bozor raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ta'minlashga erishish holatlari kutiladi. Natijada moliya bozori samaradorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Dunyo mamlakatlari oldida global o'tish yo'li sifatida turgan bir qancha yo'llarning asosiy maqsadi va vazifalariga daslab raqamli iqtisodiyotga o'tish va davlat iqtisodiyotini, moliya bozorini yetarli raqobatbardosh moliyaviy instrumentlar bilan ta'minlash kabi bir necha muhim ishlar talab qilinmoqda. Shu o'rinda moliya bozorining so'nggi o'n yillik davr mobaynida asosiy instrumentlari qatoridan o'rin egallab kelayotgan islom qimmatli qog'ozlari ham dunyo mamlakatlarining musulmon aholisi ko'p bo'lgan va musulmon hisoblanmagan davlatlar moliya bozorida ham asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirib beruvchi mahsulot sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitiga o'tishda moliyaviy texnologiya(fintech)dan foydalanish orqali islom qimmatli qog'ozlari bozoriga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Albatta bu ta'sir islom moliya bozorida ijobiy natijalarga erishishga xizmat qiladi. Islom qimmatli qog'ozlarining mohiyati, xalqaro mamlakatlar moliya bozoridagi o'rni va fintech bilan birgalikdagi harakatlari bo'yicha o'rganilgan tahlillar asosid quyidagi ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalarni ko'rsatib o'tishimiz lozim:

Birinchi, gibrid xususiyatga ega bo'lgan sukuk islom qimmatli qog'ozining eng raqobatbardosh moliyaviy instrumenti sifatida shakllanish xususiyatiga ega turi shaklida namoyon bo'lgan.

Ikkinchi, me'yoriy hujjat sifatida shariat qoidalariga mos shaklda javobgarlikka tortiluvchi va belgilangan qoidalar asosida emissiya qilinuvchi islom qimmatli qog'ozlari nafaqat musulmon davlatlari balki musulmon hisoblanmagan davlatlarda ham emissiya qilish imkoniyati cheklanmagan qimmatli qog'oz hisoblanadi.

Uchinchi, islom qimmatli qog'ozlarining samaradorlik darajasini oshirish maqsadida fintechdan foydalanish orqali sezilarli va samarali ta'sir etish imkoniyati kengayishiga erishilish mumkin.

To'rtinchidan, xalqaro moliya bozorida institutsional investorlarning islom qimmatli qog'ozlari turlariga investitsiya kiritish talabini oshirish maqsadida gibriq qimmatli qog'ozlarning an'anaviy aksiya va obligatsiyalardan farqli jihatlarni hisobga olgan holda qaror qabul qilish maqsadga muvofiq ded hisoblaniladi.

Beshinchidan, barcha moliyaviy instrumentlar qatorida islom qimmatli qog'ozlarining nafaqat sukuk turi balki boshqa turdagi qimmatli qog'ozlariga bo'lgan taklif va talablarni oshirish, ularni emissiya qilish va investitsiya kiritish ishlarini tashkillashtirish orqali mamlakat moliya bozoridagi moliyaviy instrumentlar xilm-hilligini oshirishga erishish va raqobatbardosh turlarni ko'paytirish imkoniyatiga erishish mumkin bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan jihatlarni inobatga olgan holda xalqaro moliya bozorida hamda dunyo mamlakatlari ichida keng tarqalayotgan islom qimmatli qog'ozlarini joriy qilishda munosib ijobiy ko'rsatkichlarga erishishga sabab bo'ladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. S.E.Elmirzayev, N.B.Aliqulova. "Sukuk islom qimmatli qog'ozlarining xalqaro moliya bozorida qo'llanilish xususiyatlari". "Xalqaro moliya va hisob" №1, 02.2021 yil., ISSN: 2181-1016

2. N.B.Aliqulova., "Jahon iqtisodiyotida islom qimmatli qog'ozlari muomalasi tahlili". "Logistika va iqtisodiyot" IV son. 2022 yil.

3. K.Hassan., etc., "Islamic stocks, conventional stocks, and crude oil: Directional volatility spillover analysis in BRICS". Vol.92, Oct. 2020. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S014098832030325X>

4. Pegah Zolfaghari. An introduction to Islamic Securities (Sukuk). // Uppsala Faculty of Law Working Paper 2017:2. – P.42; https://www.jur.uu.se/digitalAssets/563/c_563862-1_3-k_wps2017-2.pdf

5. E.J.Aikins Abakah., etc., "Dynamic effect of Bitcoin, fintech and artificial intelligence stocks on eco-friendly assets, Islamic stocks and conventional financial markets: Another look using quantile-based approaches". Vol.192, July 2023 <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0040162523002512>

6. R.Selmi., etc., "Dynamic inflation hedging performance and downside risk: A comparison between Islamic and conventional stock indices". Vol.91, Oct.2023. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1062976923000807>

7. U.Shahzad., etc., "Is there any market state-dependent contribution from Blockchain-enabled solutions to ESG investments?" <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1059056023000588>

8. X.Sh.Umarov., "Islom moliyasi sektorlar kesimida rivojlanishi tendensiyasi tahlili". May 9, 2022. <https://zenodo.org/records/6531953>

9. IIFM Sukuk report. August 2023. 12th edition. <https://www.iifm.net/sukuk-reports>

10. S.Abrorov. O‘zbekistonda sukuk – islomiy qimmatli qog‘ozlarni joriy etish istiqbollari. // Iqtisodiyot fanlar bo‘yicha falsafa doktori PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2020. – 7 b.

11. <https://www.statista.com/statistics/649298/distribution-of-sovereign-sukuk-issuance-by-country/>

12. Innovations in Islamic finance. Case Studies from Malaysia & Indonesia https://www.isdb.org/sites/default/files/media/documents/2022-08/IsDB_Booklet%20Islamic%20Finance.pdf